

“Olmaliq KMK” AJ
korrupsiyaga qarshi kurashish
bo‘yicha joriy qilingan tartib-
taomillarning samaradorligini
monitoring va nazorat qilish
USLUBIYOTI

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Uslubiyot “Olmaliq KMK” aksiyadorlik jamiyatining ichki normativ hujjati hisoblanib, Kombinat va uning tarkibiy bo‘linmalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha joriy qilingan tartib-taomillar va qabul qilingan ichki normativ hujjatlar ijrosini monitoring va nazorat qilish tartib-taomillari hamda standartlarini belgilaydi.

2. Mazkur Uslubiyotda monitoring deganda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi samaradorligini baholash, Kombinat va uning tarkibiy bo‘linmalari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish maqsadida tekshirish, nazorat deganda tanqidiy o‘rganish shaklida mumkin bo‘lgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holatining tahlili tushuniladi.

3. Mazkur Uslubiyot O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik hujjatlari, Kombinatning ichki normativ hujjatlari talablariga muvofiq, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ilg‘or xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

4. Kombinat va uning tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarining samaradorligini monitoring va nazorat qilish - korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat tuzilmasi (keyingi o‘rinlarda – **Komplaens-nazorat xizmati deb yuritiladi**) tomonidan amalga oshiriladi.

5. Monitoring va nazoratning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalar faoliyatining korrupsiyaga qarshi qabul qilingan talablarga muvofiqligini tekshirish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, unga nisbatan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning yetariligi va joriy etilgan tartib-taomillarni baholash va ularning samaradorligini oshirish;

kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish orqali Kombinat hamda tarkibiy bo‘linmalarda korrupsiyaga qarshi komplaens-nazorat tizimini takomillashtirish;

Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalarda korrupsiyaga qarshi ichki normativ hujjatlar va tartib-taomillariga rioya qilinishi holatini tahlil qilish;

Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlar indikatorlarini aniqlash;

manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash va tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini tahlil qilish;

Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalarda xavf-xatarlarni kamaytirishga qaratilgan boshqa tartib-taomillarining bajarilmaganligini aniqlash;

Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalarda, avvalgi o‘tkazilgan monitoring natijalari, xizmat tekshiruvlari, ichki audit tekshiruvlari, boshqa nazorat tadbirlari va ular doirasida taqdim etilgan tavsiyalarga rioya qilinishi holati, shuningdek, rejada tasdiqlangan boshqa tadbirlarning amalga oshirilishini nazorat qilish.

6. Ushbu Uslubiyotni qo‘llashda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

kontragent (shartnomaviy sherik) – Kombinat va uning tarkibiy bo‘linmalari bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoxud yakka tartibdagi tadbirkor;

korrupsiyaviy harakatlar – Kombinat xodimi tomonidan bevosita yoxud bilvosita shaxsan yoxud uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoxud harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoxud berish, pora berish va/yoxud olish yoxud bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat va lavozim vakolatlaridan noqonuniy foydalanish;

korrupsiya - shaxsning o‘z mansab yoxud xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoxud nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga qarshi tizim - korrupsiyaviy harakatlarning, O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir ichki normativ hujjatlarni buzilishining oldini olish, xodimlar tomonidan o‘z faoliyatini professional va hulq-atvor jihatdan yuksak darajada amalga oshirishni ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar yig‘indisi;

taalluqli (relevant) xabar – Kombinat hamda uning tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaviy xatti-harakatlar va manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo‘lgan xabar.

II. Monitoring va nazorat o‘tkazish yo‘nalishlari va tadbirlari

7. Kombinat hamda uning tarkibiy bo‘linmalarida quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha korrupsiyaga qarshi **monitoring** o‘tkaziladi:

Kombinat hamda uning tarkibiy bo‘linmalarida joriy qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining dolzarbligi hamda mavjud tizimning amaldagi qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligini monitoring qilish;

Axborot (matbuot) xizmati tomonidan ommaviy axborot vositalari, shu jumladan ijtimoiy tarmoqlarda, bevosita Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalariga oid yoxud Kombinat bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan kontragentlar tomonidan korrupsiyaviy hatti-harakatlar sodir etilganligi to‘g‘risidagi axborotning mavjudligini muntazam monitoring qilish hamda zudlik bilan Komplaens-nazorat xizmatini xabardor qilish;

Kombinat barcha xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha joriy etilgan komplaens-nazorat tizimi hamda uning asosiy tartib-tamoyillari, qoida va talablaridan xabardorligi darajasini monitoring qilish.

8. “Olmaliq KMK” AJ ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalarida joriy etilgan korrupsiyaga qarshi kurash tizimining **nazorati** quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

korrupsiyaga qarshi kurashishga oid tasdiqlangan Dasturlar, Yo‘l xaritalari, Chora-tadbirlar va hokazo hujjatlarning ijrosi ustidan nazorat;

Kombinat ijro apparati hamda uning tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi talab, qoida va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat.

III. Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalarda joriy etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining monitoringini o‘tkazish tartibi

9. Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalarda joriy etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining dolzarbligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi, Komplaens-nazorat xizmati tomonidan doimiy ravishda (Milliy kengash qarorlari, Agentlikning ko‘rsatmalari, xalqaro va xorijiy tashkilotlarning tavsiyalari) kuzatib borish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Zarurat bo‘lganda, Xizmat, monitoring yakunlari bo‘yicha Kombinatda korrupsiyaga qarshi ishlab chiqilgan tizimni takomillashtirish, ichki normativ hujjatlarni o‘zgartirish, qo‘shimchalar kiritish yoxud yangi hujjatlar va chora-tadbirlar loyihasini tasdiqlash uchun Boshqaruv raisiga kiritadi.

10. Ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda, Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalar xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari to‘g‘risidagi axborot mavjudligi monitoringi, Kombinatning axborot (matbuot) xizmati tomonidan doimiy ravishda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish orqali amalga oshiriladi.

Monitoring natijasida, Kombinat xodimlariga aloqador relevant (taalluqli) xabarlar aniqlanganda, ushbu xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Kombinatning tegishli ichki normativ hujjatida belgilangan tartibda harakatlar amalga oshiriladi.

11. Kombinat xodimlarining korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablar mazmuni va mohiyatidan xabardorligini tekshirish Komplaens-nazorat xizmati hamda Xodimlar bilan ishlash xizmati bilan birgalikda har yarim yilda bir marotaba amalga oshiriladi.

Xodimlarning xabardorligi ko‘rsatkichi mazkur Uslubiyotning 1-ilovasida keltirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillar va talablardan xabardorlik darajasini tekshirish tizimiga muvofiq shaklda o‘tkazilib, quyidagilarni qamrab oladi:

Tanlov asosida Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalar xodimlarining tekshiruvda ishtirokini aniqlash (so‘rovda qatnashadigan xodimlarning minimal soni Kombinat ijro apparatidagi turli bo‘linmalardan, turli lavozimdagi xodimlardan eng kamida ellik (50) nafari jalb qilinadi);

korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va Kombinat talablariga muvofiq savollar ro‘yxatini tuzish (vaziyatli topshiriqlar - keyslarni yechish bilan) minimal soni 10 ta, test, ochiq savollar yoxud boshqa shaklda tuzilishi mumkin);

javob/echimlarni taqdim qilish uchun ixtiyoriy ravishda tanlangan xodimlarga nazorat savollarini yuborish;

natijalarni tahlil qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish talablari va tartib-taomillarini tushunish va ularga rioya qilishdagi qiyinchiliklarni xodimlar bilan muhokama qilish.

12. O'tkazilgan monitoring va uning natijalari to'g'risidagi axborot mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi shaklga muvofiq alohida yuritiladigan Jurnalga kiritilishi va qayd etilishi lozim.

IV. Kombinat hamda tarkibiy bo'linmalarda joriy etilgan korrupsiyaga qarshi tizimning nazoratini amalga oshirish

13. Kombinat hamda uning tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tasdiqlangan Dastur va Yo'l xaritalarining ijrosi ustidan nazorat, korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha ichki normativ hujjatga muvofiq hisobot tuzish davomida amalga oshiriladi.

14. Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat, ushbu tizimni tashkil qiladigan funksiya, tartib-taomillar, korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan munosabatlarga nisbatan ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni ijrosiga nisbatan amalga oshiriladi.

15. Kombinat faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat predmetiga quyidagi eng xavfli va korrupsiyaga moyil jarayonlar kiritilishi mumkin:

Barcha shakldagi va turdagi xaridlar bo'yicha faoliyat;

sovg'alar, xizmat safarlari bilan bog'liq xarajatlar;

Kombinat omborxonalarining faoliyati, shu jumladan harbiylashtirilgan qo'riqlash;

faoliyati nazorat qilinuvchi tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik;

yoqilg'i-moylash materiallarining sarfi, texnologik transport hamda avtomobil transporti uchun ehtiyot va butlovchi qismlarining sarfi;

moliyaviy mablag'larning maqsadli va samarali sarflanishi;

xodimlar bilan ishlash yo'nalishida (kadrlar tanlash, ishga olish, lavozimga tayinlash, lavozimini (xizmat) oshirish, mukofotlash va boshqa ko'rinishdagi rag'batlantirishlar tartibi va taomillari).

16. Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat faoliyati jarayonlari ko'rsatilgan ro'yxatga, har yili korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash natijalariga ko'ra, Komplaens-nazorat xizmati tomonidan Yuridik departament bilan birgalikda qayta ko'rib chiqiladi va zarurat bo'lganda, korrupsiyaga moyillik nuqtai nazaridan xavfli bo'lgan yoxud aytarli dolzarb bo'lmagan jarayonlar nuqtai-nazaridan, Boshqaruv raisi hamda tegishli mutaxassislar bilan kelishilgan holda, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali tuzatish kiritiladi.

17. Bir yoxud bir nechta xavfli jarayonlarga nisbatan nazorat davriy oraliqda, lekin monitoring va nazorat rejasiga muvofiq har chorakda kamida 1 (bir) marotaba amalga oshiriladi.

18. Komplaens-nazorat xizmati tomonidan, korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat rejasi, ikki kalendar yilga mo'ljallanib, har yilning 30 yanvar sanasiga qadar shakllantiriladi.

Bunda, tekshiriladigan davr va muddatlar hisobga olinishi va tegishli chorakda tekshirilishi kerak bo'lgan xavf-xatarlar ketma-ketligini aniqlash va baholash bo'yicha ichki normativ hujjatlarda ko'rsatilgan usullar orqali, shu bilan birga Boshqaruv raisining ko'rsatmasiga ko'ra, xavf-xatarlarni baholash natijalari bo'yicha qoldiq xavflar darajasiga qarab amalga oshiriladi.

19. Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan ishlab chiqilgan nazorat rejasi har yili 5 (beshinchi) fevral sanasiga qadar Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlanadi.

20. Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan rejadan tashqari nazorat tekshiruv tadbirlari quyidagi holatlarda o'tkazilishi mumkin:

Kombinat boshqaruvi raisining kuchga kirgan tegishli buyrug'i mavjud bo'lsa;

Kombinat ijro apparati yoxud tarkibiy bo'linmalarda o'tkazilgan boshqa tekshiruvlar (rasmiy tekshiruvlar, ichki auditorlik tekshiruvlari va boshqalar) davomida korrupsiyaviy xavf-xatarlar, xatti-harakatlar yoxud huquqbuzarlik faktlari aniqlanganda;

Kombinatning maxsus aloqa kanallari orqali tegishli (relevant) xabar olingan taqdirda.

21. Nazorat tadbirlari tekshiruv shaklida o'tkazilib, korrupsiyaviy harakatlarning indikatorlarini aniqlashga qaratilgan holda, ular doirasida quyidagi tartib-taomillar ham amalga oshirilishi mumkin:

Kombinat va tarkibiy bo'linmalar tomonidan kontragentlar bilan tuzilgan shartnoma hujjatlarini, haqiqatda tovarlarni qabul qilish va topshirish yoxud ko'rsatilgan xizmat va bajarilgan ishlar bilan solishtirish;

Kontragentni (ishbilarmon hamkorlar bilan) yoxud ishlashga nomzodni tekshirish natijalariga asoslangan xulosaning to'liqligi va shartnomada ko'rsatilgan hamda tekshiruvdan o'tgan shaxsning ma'lumotlari o'zaro muvofiqligini, shuningdek tahlil uchun taqdim etilgan axborot manbasining mazmunini qayd qiluvchi hujjatlar tarkibidagi ma'lumotlarning to'liqligini tekshirish;

Kombinat va kontragentlar (muvofiqlashtiruvchi shaxslar) tomonidan tegishli hujjatlarni (shartnoma, ma'muriy va boshqa hujjatlar) imzolovchilarning vakolatlari mavjudligi yoxud taqdim etilgan hujjatlarni vakolatli shaxslarning imzolari bilan vizual ravishda mosligini solishtirish;

kontragentning rekvizitlarini va tegishli shartnoma bo'yicha summani buxgalteriya hisobi/hisoboti va boshqa ma'lumotlari bilan solishtirish;

taqdim etilgan hujjatlarda tuzatishlar kiritilganligi, o'chirilganligi, soxtalashtirish belgilari yo'qligini tekshirish;

qonun hujjatlari va Kombinatning ichki normativ hujjatlariga muvofiq ommaviy axborot vositalarida, shuningdek ijtimoiy tarmoqlarda Kombinat va uning faoliyatiga oid xabar va e'lonlarning mavjudligini tekshirish (raqobatlashuv, xarid qilish tartib-taomillarining e'lon qilinganligi to'g'risida ma'lumot va boshqalar);

nazorat tadbirlarini o'tkazish jarayonida vujudga kelayotgan masalalar bo'yicha qo'shimcha ma'lumot va izohlar olish uchun Kombinat hamda tarkibiy bo'linmalar xodimlari, rahbarlari bilan suhbatlar o'tkazish.

22. Nazorat tadbirlari yakuni bo'yicha ma'lumotnoma tuziladi, unda kirish, tavsiflovchi va yakuniy qismlarni o'z ichiga olishi lozim va qoidaga ko'ra, quyidagilar ko'rsatiladi:

Kirish qismida:

Har bir vazifa va tartib-taomillar uchun nazoratning boshlanish va tugallanish sanalari;

nazorat o'tkazilgan vazifa va tartib-taomillar ro'yxati;

nazorat o'tkazilgan vazifa va tartib-taomillarni bajarishga mas'ul bo'lgan bo'linmalar va mansabdor shaxslarning ro'yxati;

Hisobotni tuzish uchun mas'ul xodimning F.I.SH., xizmat lavozimi, tabel raqami, telefon raqamlari.

Tavsiflovchi qismida:

nazorat o'tkazilgan har bir vazifa va tartib-taomillar kesimida tanlov amalga oshirilishi usuli va tanlash hajmi;

Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo'linmalarda korrupsiyaga qarshi tizimida aniqlangan qoidabuzarlik holatlari va kamchiliklar, shuningdek kamchiliklarning paydo bo'lishiga yoxud uning rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar, shartlar va sharoitlar.

Yakuniy qismida:

nazorat o'tkazilgan har bir vazifa va tartib-taomillarda korrupsiya xavfi va xatarlarining mavjud yoxud mavjud emasligi haqida xulosa;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Kombinatning ichki normativ hujjatlarida ko'rsatilgan asosiy qoidabuzarliklar;

qoidabuzarlik fakti sodir etilgan bo'lsa, talablari buzilgan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining aniq normasi yoxud Kombinatning ichki normativ hujjatlari nomi, sanasi va buzilgan qoida mazmuni;

nazorat o'tkazish vaqtida aniqlangan qoidabuzarlik yoxud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar;

23. Ma'lumotnomaga kiritilgan barcha holatlar bo'yicha tasdiqlovchi hujjatlar va ko'chirmalar nusxalari ilova qilinishi shart.

24. Ma'lumotnoma Boshqaruv raisiga taqdim etiladi hamda o'tkazilgan nazorat tadbiri to'g'risidagi ma'lumot mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi shaklga muvofiq Jurnalga kiritiladi va qayd etiladi.

V. Yakuniy qoidalar

25. Monitoring va nazorat yakunlari bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Dasturiga kiritiladi.

26. Monitoring va nazorat yakunlari bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalarning ijrosini ta'minlash hamda amalga oshirilgan ishlarning natijadorligi yuzasidan Komplaens-nazorat xizmatiga batafsil ma'lumotlar berishga, Kombinat ijro apparatidagi shuningdek barcha tarkibiy bo'linmalar rahbarlari shaxsan mas'ul bo'ladilar.

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha joriy qilingan tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyotiga 1-ilova

“Olmaliq KMK” AJ ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalar xodimlarining korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablardan xabardorlik darajasini tekshirish

TIZIMI

T/r	Tekshiruv yo‘nalishi	Tekshiruv tadbirlari
1.	“Olmaliq KMK” AJ ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalar xodimlariga xizmatdagi odob-ahloq qoidalariga, korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilish masalalari bo‘yicha treninglar (onlayn, oflayn) o‘tkazilishining monitoringi	Treninglar muntazamliligi, ularning mazmuni va qatnashuvchi shaxslar qismi bo‘yicha ichki normativ hujjatlar talablarga rioya qilinishini nazorat qilish.
2.	“Olmaliq KMK” AJ ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalar xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va tartib-taomillar talablarini bilish darajasini tekshirish	<p>“Olmaliq KMK” AJ ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalar xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish treninglari doirasida o‘tkaziladigan test yoxud boshqa nazorat tadbirlaridan o‘tishlari natijalarining tahlili;</p> <p>“Olmaliq KMK” AJ ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalar xodimlarini korrupsiyaga qarshi siyosat bilan imzo qo‘ydirilgan holda majburiy tarzda tanishtirilganligini tekshirish;</p> <p>“Olmaliq KMK” AJ ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalar xodimlarini korrupsiyaga qarshi siyosat va tartib-taomillari to‘g‘risidagi bilimlarini tanlov asosida tekshirish:</p> <p>a) tekshiruvda qatnashish uchun “Olmaliq KMK” AJ ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalar xodimlarini tanlov asosida aniqlash (so‘rovda qatnashadigan xodimlarning eng kam soni – Kombinat va uning tarkibidagi bo‘linmalardan turli lavozimlarni egallab turgan xodimlar soni – 50 nafar);</p> <p>b) “Olmaliq KMK” AJning ichki normativ hujjatlarida ko‘rsatilgan korrupsiyaga qarshi talablar va normalar bo‘yicha (muayyan vaziyatda vazifa – keyslarni hal qilish bilan) savollar ro‘yxatini tuzish (savollarning eng kam soni 10 ta, ular test formatida, ochiq savollar shaklida yoxud boshqacha usulda tuzilishi mumkin);</p> <p>v) javoblar/qarorlarni taqdim qilishlari uchun tanlab olingan xodimlarga nazorat savollarini yuborish;</p> <p>g) natijalarni tahlil qilish va xodimlar bilan korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarni tushunishda vujudga kelgan qiyinchiliklarni muhokama qilish.</p>

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha joriy qilingan tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyotiga 2-ilova

**“Olmaliq KMK” AJ ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalarda korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish
JURNALI**

T/r	Monitoring / tadbir turi	Chora-tadbirlarni monitoring qilish davriyligi (har chorakda/har yarim yilda/ doimiy)	Monitoring / nazoratni o‘tkazish sanasi	Kuzatuv tafsiloti	Korrupsiyaga qarshi kurashish tarkibini takomillashtirish choralari	Mas’ul ijrochi	To‘g‘irlanadigan chora-tadbirlarning ijro muddati	Ijro holati
“Olmaliq KMK” AJ ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining yetarililigi baholash								
1.	“Olmaliq KMK” AJda joriy etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tizimning dolzarbligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi	Doimiy ravishda						
“Olmaliq KMK” AJ ijro apparati bo‘linmalari hamda tizimdagi bo‘linmalarda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini baholash								
2.	OAV va ijtimoiy tarmoqlar monitoringi	Doimiy ravishda						
3.	“Olmaliq KMK” AJ xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi darajasini monitoring qilish	Har yarim yilda						
4.	“Olmaliq KMK” AJda tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi dasturlar, chora-tadbirlar, yo‘l xaritalari ijrosi ustidan nazorat	Har chorakda						
5.	“Olmaliq KMK” AJda joriy etilgan korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat	Har chorakda						